BIZNES FAOLIYATINING FUNKSIYALARI

Ermatov Musojalil Komilovich
Alfraganus universiteti “Moliya” kafedrasi dosenti v.b., iqtisod fanlari nomzodi
ORCID: 0000-0001-6093-6546

https://doi.org/10.5281/zenodo.14191656

Annatosiya. *Ushbu tadqiqotda biznes faoliyatining mamlakatimiz taraqqiyotida va xalqaro maydondagi funksiyalaru tutgan o‘rni tahlil etilgan. Unda davlat jamoatchilik biznesida mehnati resurslari jarayonidagi mavjud muammolari va o’ziga xos xususiyatlari va turli jarayonlarida tadqiqotlar olib borilgan. Biznes faoliyatidagi dolzarb muammolarining echimlari izlangan. Biznes mehnat rusurslari makonida – xalqaro tavorlar, turli xizmatlar, tabiiy resurslari o’rtasida uzviy bog’liqliklar o‘rganilgan. Shuning barobarida, moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar, iqtisodiy ko’lamda global-texnologik, moliyaviy axborotlar, madaniy tizim o’choqlari kengayib borishi natijasidagi biznes funksiyalari ko’lamiga aniqlik kiritilgan.*

Kalit so’zlar: *Biznes, funksiya, talab, taklif, taraqqiyot, strategiya, mohiyat, miqdor, sifat, munosabat, qoida, holat, harakat.*

Abstract*: This research analyzes the role of entrepreneurship in the development of our country and its functions in the international arena. In it, researches were conducted on the existing problems and specific characteristics and various processes in the process of entrepreneurial labor resources of the states. Solutions to current problems in business activity were sought. In the space of entrepreneurial labor resources - international goods, various services, and natural resources - the organic connections are studied. At the same time, financial, economic and social factors, global-technological, financial information, cultural system foci on the economic scale have been clarified.*

Keywords: *Entrepreneurship, function, demand, supply, development, strategy, essence, quantity, quality, attitude, rule, condition, action.*

Kirish

Jahon hamjamiyatida bines ijtimoiy-iqtisodiy yonalishlari munosabatlarida mujassamlashgan, tez va o‘ziga xos rivojlanib borayotgan soha. Erkin bozor munosabatlarining shakllanishi va jamiyat taraqqiyotida uning o‘rni kengayib borayotgan tarmoq yunalishi hisoblanadi.

O‘zbekistonda biznes jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o‘zining yaratuvchanlik xususiyatlari bilan ajralib chiqmoqda. Shu bois, jahon bozorini o‘ziga jalb etmoqda. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidan butunlay boshqasiga o‘tish oson kechmaydi, ko‘pgina qarama-qarshiliklar kabi masalalari o‘z yechimi topilishi lozim.

Bunday e’tiborni prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2023 yilda mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqida quyidagicha ta’riflagan.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko‘plab davlatlarda ish o‘rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o‘rta biznesdan boshlangan[1].

[1] Shavkat Mirziyoyev “Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish – ustuvor vazifamizdir”. 18.08.2023 yildagi mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/6561

Albatda, biznes serqirrali, ko‘p tarmoqli, bemisl-jabhali murakkab tizimdir. Bunday murakkab sohada va uning muammolarini ilmiy tahlil qilishda, yechimlarini topishda, uzluksiz tadqiqatlar olib borishni talab etadi.

Biznes faoliyati o‘zining iqtisodiy-ijtimoiy xarakati va tarkibiy elementlarida, shuningdek, bajarayotgan ish amallarida ma’lum funksiyalarni bajaradi. Mazkur funksiyalarini bajarish davomida jamiyatga va davlatning milliy daromadiga o‘zining katta xissasini qo‘shadi. Funksiya atamasi lotin so‘zidan olingan bo‘lib, lotincha functio birikmasi, o‘zbek so‘z ma’nosida bajarish va amalga oshirish kabi tushunchalarini anglatadi[2]. Bajarish (amalga oshirish) takrorlanuvchi yoki muntazam ma’lum ishlarini amalga oshirilib borivchi vazifasini belgilaydi. Ushbu birikma barcha fanlarda ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Ulardan farqi turli fanlardagi funksiya so‘zi muntasaz ma’lum ish harakatlarini bajarib (amalga oshirib) turuvchi xususiyatiga ega. Biz quyida biznes faoliyatida funksianal ish amallarini bajarilab turuvchi tushuchalar to‘g’risida tadqiqot olib boramiz.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi haqida ma’lumotlarida yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 52,8 foizni tashkil etgan. Taqqoslash natijalari joriy yilda biznes xizmatlari sohasi yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 foizga o‘sgan[3]. Mazkur natija mamlakatimizda biznes faoliyati rivojlanib taraqqiy etayotganidan dalolat beradi. U o‘z faoliyati davomida bir qancha funktsianal majburiyatlarini bajaradi.

Biznes funksiyasi - biznes faoliyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishidir. Ular quyidagilardan iborat:



Milliy boylikni asrash va tejash funksiyasi. Milliy boylik har bir mamlakatning rivojlanishi taraqqiyoti davomida avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan moddiy, nomoddiy, tabiiy va jamg'arilgan intellektual boyliklardan iborat.

Biznes faoliyatida har bir shaxs (tadbirkor) o‘z boyligini o'sib borishini ta’minlovchi quyidagi omillarga tayanadi, Ular:

– mehnat unumdorligining orttirib borishi bilan;
– ishlab chiqarish samaradorligining yahshilashi bilan;
– shaxsiy daromadini jamg'arishi bilan tavsiflanadi.

Demak bisnes o‘zinig finksiasini bajarishi davomida milliy boylikni asrashi bilan uni ko‘paytirish va uni asrab keyingi avlodga etkazishda asosiy o‘rinni egallaydi.

[2] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: O‘zbekiston 2005 y. 286 –b. https://uz.wikipedia.org/wiki/Funksiya
[3] https://kun.uz › 2023/01/06

Mo'tadil ishlab chiqarish funksiyasi – Ishlab chiqarish vositalarining o'rni qoplanishi yalpi mahsulotning faqat bir qismi moddiy buyumlashgan boylik sifatida jamg'arilib boriladi. Muntazam daromadni saqlab qolishi uchun mo‘tadil ishlab chiqarishni ta’minlaydi.

Demak, qoplash fondi va moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi mo‘tadil ishlab chiqarishni ta’minlab milliy boylikni yaratadi.

Narx belgilash funksiyasi – erkin bozorda narx darajasi va diapazonini, tovarning sifati va mavqeyiga mosligini, iste’molchilar xarid qobiliyatiga to‘g‘ri kelishini, egiluvchanligini, narx ustamalari chegirmalari va boshqa vazifalarni bajaradi. Shu bilan tovarni yetkazib berish va sotish usullari tartibga solinadi.

Demak, ko‘rinmas qo‘llar orqali tadbikor narxlarning mo‘tadilligini ta’minlaydi. Bu iqtisodoytning asosiy qonuniyati hisoblanadi.

Talab va taklifni qondirish funksiyasi – Bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklif qonuni markaziy o‘ringa ega. U ko‘zga ko‘rinmas katta qudratga ega.

Talab – kishilik jamiyatining umumiy ehtiyoj emas, balki to‘lovga qodir bo‘lgan, yani pul bilan ta’minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj bu inson hayoti davomida kerakli (keraksiz) vositalarga zaruriyatidir. Bu bilan kishilik taraqqiyotning barcha farmatsiyasi uchun umumlashgan va doimiylikni ifoda etuvchi ilmiy kategoriya sanaladi. Ehtiyojning bozor iqtisodiyotida ifodalanishi «talab» deya nomlanadi. Talab, ehtiyojdan keskin farq qiladi, u mustaqil kategoriya sifatida ehtiyojning faqat pul bilan ta’minlangan qismini talab deb tan olinadi. Demak, talab – bu pul bilan ta’minlangan ehtiyojlar yig’indisidir.

Taklif – tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan va muayyan vaqtda bozorga etkazilgan yoki keltirish kutilayotgan jami tovarlar yigindisidir. Taklif tadbirkorni ma’lum vaqt ichida ishlab chiqarishga qodir bo‘lgan narxning har bir darajasida bozorga sotishga chiqaradigan mahsulotlar miqdorini belgilaydi. Narx o‘zgarishi bilan (pasayishi) sotishga chiqariladigan mahsulot miqdori ham o‘zgarishi (pasayishi) sababli talab va taklifning ham o‘zgarishiga olib keladi.

Biznesda yangi iste’molchilar jalb qilish, mavjud iste’molchilar doirasini kengaytirish, raqiblar iste’molchilarini o‘ziga ag‘darib olish, o‘zi uchun muhimroq bo‘lgan iste’molchilami uzoq saqlab qolish maqsadlarida narxlarini pasaytirib yoki narxlariga chegirmalar qo‘llab, raqobatda ma’lum ustunlikka erishadi. Bu esa o‘z navbatida mamlakat bozoridagi talab va taklif muvozanatiga ta’sirini o‘tkazadi.

Demak, biznes faoliyatida jamiyat a’zolarining talabi va taklifini qondirilishida o‘zining funksiyanal vazifasini bajaradi.

Biznes funksiyalarida iste’molchilar talabini shakllantirish biznes tizimida etakchi o‘rin egallaydi. Talabni shakllantirish bir qator jarayonlarda bir necha ko‘rinishlarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, yangi tovar va mahsulotlarga talabni paydo qilish, yani yashirin talabni yuzaga chiqarish hisoblanadi. Shu bilan birga talabni kuchaytirish, talabni elastik o‘zgartirish, talabni taklifga moslashtirish kabi jarayonlar hisoblanadi. Talabni shakllantirishning asosiy maqsadi iste’molchilarni tovarga jalb qilish, talab-istaklarini kengaytirish, taklif etilayotgan aynan shu tovarni sotib olishga ko‘ndirish va oqibatda tovarni ko‘proq va tezroq sotishdan iborat. Bu iste’molchilarga biznes vositalari va usullari yordamida ta’sir etish orqali amalga oshiriladi. Iste’molchilar talabini shakllantirishga reklama, taqdimot marosimlari, ko‘rgazmalar, ko‘rgazma-savdolar, yarmarkalar, uchrashuvlar, suhbatlar, ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot, xaridorlarni rag‘batlantirish, ular bilan aloqani saqlab qolish, mahsulotni shaxsiy sotish va boshqa biznes vositalari va usullari xizmat qiladi.

Xulosa

Biznes faoliyati uning bajarayotgan funksiyasi bilan kishilik jamiyatida o‘zining asl mavqe’ini baland tutadi. U erkin iqtisodiyot sharoitida iste’molchilar talabini qondirish orqali daromdini ortirib boradi. Daromadi yuksalishi milliy daromadni o‘sishiga hissa qo‘shadi. Davlatning milliy daromadi jamiyat tarraqqiyoti rivojlanishiga olib keladi. Prezidentimiz xulosasiga ko‘ra, Iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarning ish o‘rinlarining 70-80 foizi tadbikor vakillari tomonidan yaratilmoqda. Bu esa mamlakatning ishsizli darajasining mo‘tadil me’yyirinшı belgilaydi. Ishsizlik darajasi ortib kitishi jamiyatda qanday iqtisodiy inqirozlarga olib kelishi kuzatilgan. Masalan:

Iqtisodiy tahlillar shundan dalolat beradiki, XX asrning 1990-yillarda jahon iqtisodiyotida usish avj olgan paytda AQShda ishizlik darajasi 4 foizdan ortib ketgan, moliyaviy inqiroz vaqtida esa ishsizlik 10 foizdan oshib ketgandi. Ko‘rib turibmizki, inqirozdan keyingi bir necha yillik tiklanishdan so‘ng ishsizlik yana taxminan 4 foizlik kursatkichga qaytdi. Kimki ishizlik muammosidan xavotirda bo‘lsa, iqtisodiy o‘sish borasida g’am qaygurishi kerak. Amerikaliklarning "Ouken qonuni"ga ko‘ra, umumiy qoida shunday: yalpi ichki maxsulotning yiliga 3 foizga o‘sishi ishsizlik darajasiga xech qanday tasir kursatmaydi. Ammo undan ko‘proq yoki kamroq iqtisodiy o‘sish ishsizlik darajasini kamaytiradi yoki oshiradi, bunda milliy daromad ko‘rsatkichi uzgarishining har bir foizi ishsizlik darajasini yarim foizga o‘zgartiradi. Shunday qilib, yalpi ichki maxsulotning 4 foizga oshishi ishsizlikning yarim foizga kamayishiga, yalpi ichki maxsulotning atigi 2 foizga usishi esa ishsizlikning yarim foizga usishiga olib keladi.

Demak, biznes faoliyatiga sharoit yaratilashi jamiyatning rivojlanish nuqtasini boshlanishiga tengdir. Biznes funksialarining bajarilshi jamiyyat taraqiyoti sezilarli darajada ravnaqiga xissa qo‘shadi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoyev “Biznes rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish – ustuvor vazifamizdir”. 18.08.2023 yildagi mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/6561
2. Hamroyev Halim Rajabovich. Biznes asoslari: kasb ta’limi (iqtisodiyot) yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. - T.: Yangi nashr, 2010. - 360 b.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.: O‘zbekiston 2005 y. 286 –b.
4. Charlz Uilan: Yalang‘och iqtisodiyot. Murakkab sohaning sodda qiyofasi. –T.: O‘zbekiston 2023 y. 586 –b.
5. kun.uz › 2023/01/06 Davlat Statistika ma’lumotlari.